



Etika fanining predmeti va jamiyatda tutgan o'рни va shuningdek falsafiy qarashlar

Bozorova Umida Panji qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya
fakulteti xorijiy til va adabiyoti yo`nalishi 1-kurs talabasi

e-mail: Umidabozorova279@gmail.com

O`qituvchi : **Toshboboyev Maqsud Jalilovich**

e-mail: Maqsudtoshboboyev888@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada odob, axloq va urf -odat tushunchasini umumiy ma'nosi yoritib berilgan bo'lib, bundan tashqari axloqshunoslik milliy - mintaqaviy axloqiy qadryatlarimiz haqida ham ma'lumotni yoritib beradi. Bundan tashqari, gedonizm tushunchalarining axloqiy mohiyati va knik millatining ushbu sohaga qoshgan hissasi haqida ham ma'lumot berilgan bo'lib, turli xil ushbu sohaga izlanish olib borgan falsafashunoslarni fikrlari ham ma'lumot o'rnida berilgan .

Kalit so`zlar: etika, mintaqaviy qadryatlar, axloqshunoslik, gedonizm tushunchasi, axloq, urf - odat, deontologiya atamasi.

Kirish qismi:

Shuningdek bu maqolada buyuk faylasuflarni etika sohasiga qo'shgan hissalar va qilgan ishlari haqida ma'lumot toplangan bo'lib, bundan tashqari axloqshunoslik, milliy va mintaqaviy qadryatlar, deontologiya, gedonizm, descriptive kabi atamalarga ta'riflar hamda qisqacha ma'lumotlar berilgan.

**Etika tushunchasiga berilgan ta'rif:**

Etika», «axloq», “odob”, “xulq”, «xulq-atvor» atamaları, etikaning ob'ekti, etikaning predmeti, etikaning turli aspektlari (sohalari), etikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, gedonizm, evdemonizm, axloq va ma'naviyat, etika kategoriyalari, muhabbat va nafrat, yaxshilik, yomonlik, adolatlilik, adolatsizlik, vijdon, shon-sharaf (sha'n), or-nomus, burch, baxt, hayot mazmuni (ma'nosi), axloqiy ideal, axloqiy tamoyillar, vatanparvarlik, insonparvarlik, erkparvarlik, fidoiylık, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, mehmondo'stlik, axloqiy me'yorlar, halollik, nopoklik, to'g'rilik, egrilik, rostgo'ylik, yolg'onchilik, insoflilik, insofsizlik, xushfe'llik, badfe'llik, shirinsuxanlik, qo'pollik, kamtarinlik, maqtanchoqlik, ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov.«Etika» so'zi yunoncha ethos – odob, urf-odat ma'nosini anglatadi. Bu atama maxsus fan nomi sifatida ilk bor Aristotel (er. avv. 384-322 y.y.) tomonidan fanga kiritilgan edi, keyinchalik uni qat'iy ma'noda stoiklar ishlatgan edilar.Etika fanining o'rganish ob'ekti axloqdir. Axloq – ijtimoiy ongning maxsus shakli, jamiyat ma'naviy hayotining muhim sohasi.Etikaning predmeti axloq vujudga kelishi va taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari, uning mohiyati, tarkibi, tamoyillari va me'yorlaridir.Etika axloq vujudga kelishi va taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganganligi sababli falsafiy fan bo'lib hisoblanadi.

Axloqshunoslik tushunchasiga berilgan ta'rif:

Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda “Ilmi ravish”, “Ilmi axloq”, “Axloq ilmi”, “Odobnoma” singari nomlar bilan atab kelingan. Ovro'poda esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik .Axloqshunoslik qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar edi.Keyinchalik (Arastudan so'ng) alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribroq talqin etish mumkin.

Hozir u falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni:



1) bayon qiladi;

2) tushuntiradi;

3) o'rgatadi. Axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Sitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Spinoza, Kant, Hegel, SHopenhauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nitsshe, Vl. Solovyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda «Patanjali», «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning « Mahbub ul - qulub», Montenning «Tajribanoma», Laroshfukoning «Hikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlar ham o'z mustahkam o'rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o'ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtaligidadir.

Axloqning umumiy nazaryasi:

Ushbu falsafiy bôlim, axloqning tabiati, mohiyati, ôziga xos xususiyatlari tarkibi, axloq rivojlanish, uning jamiyatdagi ôrni va ahamiyati kabi metodologik, umumiy nazariy masalalarni ôrganadi.

Tarixiy etika - axloq va axloqiy nazariyalarning tarixan vujudga kelishi, taraqqiyoti qonunlarini o'rganadi.

Etik aksiologiya – axloqiy qadriyatlar, yaxshilik va yomonlik masalalarini tadqiq etadi.

Axloq genealogiyasi – axloqning vujudga kelishi masalalarini o'rganadi.

Axloq sotsiologiyasi – axloqning boshqa ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etadi (axloq va iqtisod, axloq va siyosat, axloq va fan, axloq va din, axloq va madaniyat, axloq va san'at va h.k.).

Professional etika – axloqning turli kasblar doirasida o'ziga xos amal qilish xususiyatlari, normalarini o'rganadi (pedagogik etika, aktyor etikasi, vrach etikasi, harbiy etika va h.k.).



Normativ etika – jamiyatda va kishilar o‘zaro faoliyatlarida amalda bo‘lgan axloq normalari va me‘yorlarini o‘rganadi.

Deontologiya (yunoncha deon – burchlilik, zaruriylik, logos – fan, ta'limot) – etikaning burch va burchlilik, axloqiy zaruriylik masalalarini o‘rganuvchi sohasi.

Deskriptiv etika – muayyan jamiyat axloqini konkret-sotsiologik va tarixiy tahlil qiluvchi etika sohasi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi – insonni axloqiy tarbiyalash qonunlari, prinsiplari, metodlari va vositalarini o‘rganadi.

Gedonizm va evdimonizm tushunchalarining axloqiy mohiyati:

Gedonizm (grech. hendone — lazzatlanish) — qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida ko‘ngilocharlik, huzurlanish ma'nolarini beradi. Qadimgi davr axloqshunosligida gedonizm (huzurbaxshlik ta'limoti) hayotning ma'nosini nafaqat jismoniy, balki ruhiy huzurbaxshlikdan ham iborat degan ta'limotni ilgari surar edi. Gedonizm (huzurbaxshlik ta'limoti) — bu o‘ziga xos hayotga bo‘lgan yondoshuv bo‘lib, hayotda asosiy maqsadning birinchi pog‘onasiga lazzatlanish va huzurbahshlik qo‘yiladi.

Qadimgi davrda gedonizmga qarshi g‘oyalarni ilgari surgan kiniklar edi. Kiniklarning asoschisi Antisfen (e.a. 435-375 yy.) lazzatlanishning har qanday turini, inson ehtiyoji uchun kerakli bo‘lgan oddiy qulayliklarga nisbatan ham qarshi chiqadilar. Misol uchun, Diogen Sinopskiy (e.a. 330 y. — 320 y), bochkada yashab, faqatgina yopinchiq bilan cheklangan. Bundan maqsad – moddiy imkoniyatlardan voz kechib haqiqiy erkinlikka erishish edi. Gedonizmning qaysidir ma'noda davomchisi sanalgan yana bir yo‘nalishlardan biri evdemonizmdir. Evdemonizm (grech. ευδαιμονία — barqarorlik, huzurbaxshlik, baxt) — inson asosif faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqshunoslik yo‘nalishlardan biri sanaladi. Epikur esa lazzatni hayotni yo‘lga qo‘yishning tamoyili sifatida ko‘radi. Gedonizm axloqshunoslikning huzurbaxshlik yo‘nalishi bôlib, unda hayotning maqsadi hayotning yuksak ne'matlariga intilish va undan



lazzatlanib, zavqlanib yashash bilan belgilanadi. Shu jihatdan ham qadimgi davr faylasuflaridan bejizga Antisfen "Mehnat orqasidan keladigan faroʻgatni talab qilish kerak, undan oldin keladiganini emas" degan fikrni ilgari surgan.

Etika axloqining kelib chiqishi:

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uygʻotadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega boʻlmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni oʻz ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-koʻy miqyosida ahamiyatli boʻlgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli taʼsir koʻrsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna boʻla oladigan ijobiy xatti-harakatlar yigʻindisidir. Axloqning jamiyatda, inson hayotida tutgan oʻrni va ahamiyati uning funksiyalarida oʻz ifodasini topadi:

Regulyativ funksiya – eng asosiy funksiya boʻlib, jamiyat aʼzolari xulq-atvorlarini moslashtirish, boshqarishdan iborat.

Baholash funksiyasi – axloq normalari va etika kategoriyalari orqali xulq-atvorlar toʻgʻrisida hukm chiqarish (yaxshi-yomon, axloqli-axloqsiz, adolatli-adolatsiz, vijdonli-vijdonsiz va h.k.).

Bilish funksiyasi – axloq ijtimoiy ong shakli sifatida ijtimoiy hodisalar, munosabatlar, kishilar xulq-atvorlarini bilib olishning muhim vositasi hisoblanadi.

Tarbiyaviy funksiya – axloq inson xulq-atvorlari, irodasi va dunyoqarashini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Mezoniy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik – ezgulik va yovuzlik, ezgulik axloqshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon boʻladi. «Ezgu oʻy, ezgu soʻz, ezgu aʼmol» uchligi «Avesto» dan tortib, barcha muqaddas kitoblarda etakchi oʻrinni egallashi ham shundan. Ezgulik – inson



shaxsining komillikka, baxtga, jamityani esa yuksak taraqqyoitga etkazuvchi vositadir. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yohud partiyaviylik qobig'iga o'rash mumkin emas. CHunonchi, «sinfiy dushmanni», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo'lgani uchun jisman yo'qotish, qanchalik bo'yab-bo'jalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. SHu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Adolat – tenglikning haqqoniy va taqdirlashning zaruriy o'lchovidir.

Burch – kategoriyasi shaxsning jamiyatga yoki kishilarga nisbatan bo'lgan axloqiy majburiyatini ifodalaydi.

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, kadr-qimmati, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch .

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bōlsak, ushbu maqolada buyuk faylasuflarni etika sohasiga qōshgan hissalar va qilgan ishlari haqida ma'lumot toplangan bōlib, bundan tashqari axloqshunoslik , milliy va mintaqaviy qadryatlar, deontologiya, gedonizm, descriptive kabi atamalarga ta'riflar hamda qisqacha ma'lumotlar berilgan bōlib misol uchun Antisfenni fikrlarini tahlil qiladigan bōlsak: mehnat qilmasdan turib hech qanday farōgatda yashash xuddi" Oson kelgan narsa, oson ketadi " iborasiga qiyoslangan .

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Sher, Abdulla. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2000.
2. Aristotel, Nikomaxovaetika (soch. v 4x t., t. 4), Moskva, 1983.



3. Navoiy A., Mahbub ul-qulub (Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildli, 14j.), Toshkent, 1998.
4. Forobiy, Fozil odamlar shahri, Toshkent, 1993.
5. Avloniy A., Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 1992.
6. Jumaboyev yil, O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, Toshkent, 1997.
7. Yusupov etika, Inson kamolotining ma’naviy asoslari, Toshkent, 1998.
8. Zagritdinova F., Nekotorne problemn biomeditsinskoy etiki, Toshkent, 2005.
9. Vikipediya.uz